ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To‘xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi:
milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O‘ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 97

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma’no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe’llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
«Devonu lug‘ati-t-turk» asaridagi she‘riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O‘G‘LI
Jadid dramaturgiyasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR’AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o‘zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA’LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog‘lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

JADID DRAMATURGIYASINING G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Tashpulatov Muxriddin Raxmatulla o'g'li,
Andijon davlat universiteti doktoranti

Jadidlar favqulodda qisqa muddatda Turkiston ahlini ma'rifatga chorlash zarur degan mutlaq xulosaga kelib, buning eng tezkor vositalarini qo'llash payida bo'ldilar. Jadidlar o'lka hayotida siyosiy va harbiy qonunlarini joriy etish asnosida o'z urf-odat va qadriyatlarini, yashash tarzini, maishiy, ma'naviy va madaniy zavq olish vositalarini ham tatbiq etish yo'lidan borgan mustabid tuzumning adabiy, madaniy yangiliklarini taftish etishdi. Ana shunday vositalarning eng samaralisi sifatida matbuot va teatrni harakatga keltirish masalasi kun tartibiga qo'yildi.

O'lkaga jadidlar olib kirgan teatr san'ati qisqa fursatda shakllanib, favqulodda rivojlandi. «1911-yildan, ya'ni ilk milliy drama – «Padarkush» yaratilgandan to 1916-yil o'rtalariga qadar shakllanish davrini, 1916-yil ikkinchi yarmidan to harakat ma'naviy ham ilk jismoniy tazyiqlarga uchragan 1929-yilgacha rivojlanish bosqichlarini kechirdi»[1].

O'zbekiston tarixi va madaniyatini tadqiq etgan amerikalik olim, professor Edvart Olvort to'g'ri ta'kidlaganidek, «Padarkush»ning sahna asari sifatidagi o'ziga xos fazilati shuki, muallif zamonasining mudhish va jirkanch illatlarini ochiq namoyish etganligi bilan belgilanadi. Demak, Markaziy Osiyoda birinchi zamonaviy sahna asari «Padarkush» nomi bilan boshlandi va rivoj topdi. «Padarkush» mavzusiga mos birinchi pardaning dastlabki daqiqalarida tomoshabinlar ota va o'g'il o'rtasidagi juda qisqa va noxush munosabatga guvoh bo'ladilar.

Shundan so'ng N.Qudratillaning «To'y», A.Qodiriyning «Baxtsiz kuyov», A.Badriyning «Juvonmarg», H.Muinning «Eski maktab, yangi maktab», H.H.Niyoziyning «Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari», A.Avloniyning «Advokatlik osonmi?» kabi o'z davri uchun ham, eng e'tiborlisi, bugungi davr uchun ham dolzarb hisoblanadigan, qator muhim mavzularga bag'ishlangan, g'oyaviy jihatdan millatni uyg'otish, o'lka musulmonlari yashash tarzida illat o'laroq malakalangan ayrim battol, xurofiy, mutaassibona, eskilik sarqitlari sanaladigan rasm-rusum, ortiqcha odat va urflarni tag tomiri bilan sug'urib tashlash maqsadida bitilgan asarlari debocha namunalar sifatida e'tirof etilib, muvaffaqiyat qozondi.

Behbudiyning shogirdi, u boshlab bergan teatr san'atidagi an'analarni munosib davom ettirgan muallif Nusratulla Qudratilla Samarqandda istiqomat qilib, dramatik asarlar ijod etgan. Uning «To'y» nomli dramatik asari o'zining g'oyaviy xususiyatlari bilan yangicha qarashlar, milliy mazmun-mundarijaga mutlaqo yangi yashash tarzini joriy etish, eski, dogmatik qarashlarga barham berish, mavjud milliy illatlarni baralla fosh etish nuqtai nazaridan tomoshabinda katta taassurot qoldirgan dramatik asardir. Behbudiy asos solgan «Oyina» jurnalining 1914-yil, 29-mart №23-sonida e'lon qilingan «To'y» pyesasida ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, Turkiston diyorida yashayotgan turkiy xalqlarning istiqboli, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy hayot tarzida «og'riq tish» *o'laroq simillab turgan ortiqcha marosim va tantanalar tashvishida yashash, alaloqibat, kishini (to'y sohiblarini, umuman, shunday kayfiyatda andarmon yashayotgan jamiyatni) turli falokatlarga, ko'ngilsiz va boshi berk vaziyatlarga giriftor etish manzaralari* ro'y-rost tasvirlanadi. «To'y» dramatik asarining bosh qahramoni – Boy. U o'g'lining sunnat to'yini o'tkazish munosabati bilan to'ydan avvalgi izdihom – «maslahat oshi» muddaosida xonadonida yig'in tashkil etadi. Yig'inga mahalla ahli: imom, oqsoqol, nuroniylar vakili, yigitlarning jo'raboshisi, ko'pkari tadbirlarining bakovuli taklif etiladi.

Teatrshunos T.Tursunov ushbu o'rinda quyidagilarni bayon etadi: «Maslahat boshlanishi bilan mahalla oqsoqol – ellikboshisining «Boy bobo na tariqa to'y qilmoqchisiz? Kichikroq, kambag'alvormi? Yoki ovoza chiqaraturg'on boy zebmi?» degan savoliga Boy: «Manim ixtiyorim sizlardadur. Baharhol bir maslahat beringlarki, boshqa boy jo'ralarimiz ayb qilmayturg'on to'y bo'lsun. Agar mumkin bo'lsa, bizniki alarnikidan bir parda ziyoda bo'lsun», – deb javob beradi»[2]. Dialoglardan anglashiladiki, «maslahat»ga kelganlar ham Boyning qosh-qovog'iga qaraydigan, aslida, so'zi ham, qarori ham undan o'tib, hech qanday ahamiyat kasb etmaydigan kimsalardir. Boy esa barcha zamonlarda ham – Boy. Agar sal-

[1] Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 134.
[2] Турсунов Т. XX аср ўзбек театри тарихи. – Тошкент: ART PRESS Co.Ltd, 2010. – Б. 39.

biy jihatlari avj olsa, u jamiyatdagi muvozanatlarni buzib yuboruvchi, o'zi qatori puldorlarga baxas qilish fonida boshqa oddiy, qashshoq, nochor odamlar tafakkurida turli fikrlarni hosil qiluvchi kimsaga aylanishi mumkin. Pyesada muallif «maslahat oshi»ga kelgan nuroniy oqsoqollar vakili tilidan quyidagi voqeani keltirib o'tadi:

«Ushbu yil Ka'batullohga borayotganimizda, Istambulda yigirma olti kun qoldim. Bir kun taxtdan tushirilgan sultonning ikki o'g'ilchasini xatna qilmoqchi ekanlar. Uch-to'rt rafiqalarim bilan tomoshasiga borduk. Sakkiz oshyonalik katta bir hovlini tagiga borib yetganimizda, rafiqalarimning biri: «Ana shu yerda to'y bo'ladur», – dedi. Darvozasi tagida qorovul bo'lib turgan bir to'radan ruxsat olub, ichkari kirduk. Murti olinmagan bir turk bizlarni to'rtinchi oshyonaga olib kirdi. Qarasak, taxminan o'ttiz-qirq kishi, Turkiya amaldor-u askarlaridan hammalari kursilarda o'tiribdurlar. Bizlarga ham kursi olib keldilar. Lekin bizlar hushyorlik qilub, «kursiga o'tirmoq durust emas», deb yerga o'tirduk. Besh-olti daqiqadan keyin hammamizga bir stakandan choy berdilar. Choyni ichib bo'lur erdukki, bolalarni yotquzib kesdilar. So'ngra hammalari bitta-bitta chiqib ketdilar. Bizlar ham shu ishga hayron bo'lub, chiqib qo'shxonamizga kelduk. So'ngra ba'zi odamlardan surishtirib bildikki, u yerlarda to'y, bazm, ko'pkari degan narsa yo'q ekan...»[1].

Ma'lumki, Usmonli turklar O'rta Osiyodan ko'chib, Kanstantinopol(Istanbul)ni ishg'ol qilgan qardoshlarimiz hisoblanadi. Ularning demokratik, maishiy iqtisod asosiga qurilgan yangi jamiyatidagi urf-odatlar asarda bejiz namuna qilib tasvirlanmagan. Turkiston turklari turmush tarzidagi maishiy tashvishlarning og'ir oqibatlarini bartaraf etish mavzusini tarannum etgan ziyolilar xalqning qoloq va omi qismiga shu tarzda ko'zgu tutarkan, aslan tomirlari bir bo'lgan ikki turkiy xalqning yashash ahvolini shu tariqa qiyoslaydi.

Atoqli adibimiz A.Qodiriyning «Baxtsiz kuyov» nomli dramatik asari ham ayni mavzuga bag'ishlangan bo'lib, u ham «To'y» dramasi bilan bir yilda (1914) e'lon qilingan. «Baxtsiz kuyov» dramatik asari kechadigan voqea-hodisalar «To'y»dan farqli ravishda boy-badavlat xonadonda emas, aksincha, oddiy, yo'qsil, kambag'al oilada sodir bo'ladi. Shundan farqlash mumkinki, boylar urf-odatlar bilan bog'liq muvozanatni buzib yuborgan, kim o'zarga to'y qilish an'anasi oddiy fuqarolarning ham turmushiga kirib borgan. Farqi shundaki, oddiy fuqaro oilasi dabdabali to'y qilish payida turli iqtisodiy muammolarga duchor bo'lishi turgan gap. «Baxtsiz kuyov»da ham xuddi shunday bo'ladi. Asarda yetimlikda voyaga yetgan Solih ismli yigitni amakisi(Abdulrahim)ning qizi Rahima bilan nikohlashga kengashadilar. Qiz tomon rozi. Ammo shar'iatdan tashqari mablag' olib qarzdor qilingan Solih tang ahvolda qoladi. Tabiiyki, u qarzni to'lay olmaydi. Natijada, uning bor bisoti musodara qilinib, «xat»ga tushadi. Ularni hech kim qutqara olmaydi. Uy-joy va mol-mulkdan ayrilgan ikki yosh o'z joniga qasd qilishga majbur bo'ladi.

«RAHIMA – O'zingizni o'ldurar bo'lsangiz, avval meni o'lduring, sizdan ajralib turolmayman bu dunyoda.

SOLIH – Seni o'ldurishka aslo qo'lim bormaydi, sen bu dunyoda tur, meni o'lganim yaxshiroq (o'z-o'ziga pichoq urmoqchi bo'lar).

RAHIMA – (sakrab Solihdan pichoqni olib, o'z biqiniga urar, chalqanchasiga yiqilur, qo'lidan pichoq bir tarafga tushar, tipirlar va ohlar tortar, jon berar).

SOLIH – (Yig'lay-yig'lay qoziqdan joynamoz olub kelib Rahimaning ustiga yopar va yuzidan o'pub, Rahimaga qarab) Ey vafodor yorim, meni deb shirin joningdan kechding, mahshar kuni Xudo va rasul alayhissalom oldida meni erim jabr bilan o'ldurdi demagil, ajalingga men sabab bo'lmadim, balki o'zingning otang sabab bo'ldi. Mendan shar'iatdan tashqari oqcha olib qarzdor qildi va yosh umrimizni xazon qildi. Seni va meni bevaqt o'lumimizg'a isrof sabab bo'ldi. Xudo xohlasa, mahshar kunida otang Fayziboy javobgar bo'lsa kerak. Oh, esiz yosh jonim, ey xudovandim! Bizlarni o'limimizg'a sabab bo'lgan o'zingg'a ma'lum (Rahimaning bosh tarafiga o'tub o'ziga birdan pichoq urub, yiqilib, xirillab-xirillab jon berar. Birozdan so'ng boy, pristuf kirarlar)»[2].

A.Qodiriyning ushbu asaridagi prototip va protosyujetlar masalasi hayot haqiqatlari bilan mutanosib. Muallif yashagan davrda bechora solihlar va rahimalar taqdiriga o'xshash taqdirlar bot-bot uchrab turganligi, buyuk adibning shu og'riqli mavzuda asar bitishga, uni sahna orqali millatga namoyish etishga undagani, tabiiy hol.

XX asrning ilk choragida, ayniqsa, xotin-qizlar ozodligi, ularning huquq va erkinligi masalasi dolzarbligicha qolgan. Bu og'riqli mavzuni birinchilardan bo'lib teatr sahnasiga olib chiqqan mahoratli aktyor va dramaturg Abdulla Badriy 1915-yilda «Juvonmarg» sarlavhali tragediyani yaratadi. Asar milliy illatlarning turli qirralariga ko'zgu tutish va fosh etish borasida «To'y», «Baxtsiz kuyov» tipidagi sahna asarlarining mantiqiy, uzviy davomi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Asarda qimorboz, buzuq Toshpo'lat To'tioy ismli qizini hech kimning roziligisiz Akram kanto'r ismli bir boy kimsaga unashtirib, qalin pulini olishi epizodi bilan boshlanadi. Bundan xabar topgan qiz va ona

[1] Қудратилла Н. Тўй // *Ойина журнали*, 1914 йил, 29 март. № 23.
[2] https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-qodiriy/abdulla-odirij-bahtsiz-kuyov-drama/

bor kuchi bilan bu qarorga qarshi chiqargan, ayni jarayonda tragediyada kuchli dramatik intriga vujudga keladi. Alaloqibat to'yni bekor qilishga erishgan To'tioy va uning onasi shu bilan qutulmaydi. Endi kelin bo'lmish istiqbolini aniq bilardi: yo o'lim, yo baribir Akram kanto'rga tegib, hayotini xazon qilish. Shunday bo'ladi ham. Pyesa yakunida ona va qiz o'zlarinii halok etadilar. «Pyesada Abdulla Badriy ko'pchilik jadidlar singari hamma yomonliklarning, shu jumladan, turkistonlik musulmonlar fojiasining bosh sababi – jaholat, nodonlik va bilimsizlikdadir degan g'oyani olg'a suradi, – deb ayni haqiqatni bayon etadi teatrshunos T.Tursunov. – Jaholat qurboni Toshpo'lat:

«Xudoyim taolo xotunlarni bizlarga qul qilib yaratib qo'ygan. Onalar bizlarga xizmatkor», – desa, qizi To'tioy, «Bizning baxti qaroliklarimiz otamning buzuqlikidadur. Ammo otamning buzuqliklari nodonlikdandur... Biz xotin-qizlar, barchamiz baxti qarodurmiz. Xususan, biz Turkiston xotin-qizlaridek badbaxt ham mazlumalar hech bir yerda yo'q... Bizlarni badbaxt qilgan narsa ham nodonlikdur», – degan xulosaga keladi»[1]. Mahalliy aholining Toshpo'lat singari tipik vakillari tafakkurini o'zgartirish, ularning zehniyatidagi jaholatga butkul barham berish bir nechta maqola yoki sahna asarlari bilan amalga oshiriladigan ish emasligini jadidlar yaxshi bilganlar (Keyinchalik, 1933-1934-yillarda yaratilgan Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida ham shu xil muammoga Razzoq so'fi obrazi taqdiri asnosida poetik yechimlar taqdim etiladi). Shu asnoda ular, milliy o'zlik ustida, ta'bir joiz bo'lsa, qobiq kabi hosil bo'lgan nodonlik va jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash usullarini muntazam ravishda matbuot va sahna vositasida qo'llashni maqsad qilganlar. Tabiiyki, jadidlarning bu urinishlari besamar ketmagan. O'lka musulmonlarining johil qatlami sekin-asta oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratadigan holatga kela boshlaganlar.

Behbudiyning yana bir munosib shogirdi va izdoshi Hoji Mu'in Shukrullo ham o'zbek ayollarining erksiz taqdiri mavzusiga qo'l urgan. U «Mazluma xotin» (1916) dramasida jamiyatdagi xotin-qizlarga zulm muammosini jadid g'oyalariga uyg'un ravishda keskin qoralash yo'lidan boradi. Shuningdek, H.Muinning uch pardali «Eski maktab, yangi maktab» nomli dramatik asari ham o'z davrida ijtimoiy hayotni real tasvirlash borasida jadid dramaturgiyasi taraqqiyotini yuksaltirgan asarlar sirasiga kiradi. Asarda muallif eski maktablardagi ta'limning mavjud ahvolini (1-pardada), eski va yangi (usuli jadidni ta'limda tatbiq etish) maktablarning bir-biridan farqlarini yaqqol ko'rsatib beradigan bahs va munozaralarni (2-pardada) hamda yangi jadid maktablarida olib boriladigan tizimli ta'limni: dars, fanlar, imtihonlar, samaradorlik masalalarini (3-pardada) ifoda etish asnosida zarur xulosalar chiqarishni o'quvchiga (tomoshabinga) qoldiradi. Muallif dramatik asarning muhim qahramonlaridan biri – Komilboy obrazi vositasida yangi maktablarni ochish ishlariga mahalliy sarmoyadorlarning mablag'larini jalb etish, ularning fikrini, dunyoqarashini zamonaviylashtirish lozim, degan g'oyani ilgari suradi. Shu bois ham «Eski maktab, yangi maktab» dramasida tasvirlangan boy obrazi jadid yozuvchilari qalamga olgan boshqa boy timsollaridan farq qiladi. Dramada Komilboy – yangi taraqqiyot usullariga moyil, yangilikka xayrixoh, umuman olganda, dolzarb milliy masalalarga befarq bo'lmagan, ziyoli sifatida tasavvur uyg'otadi.

Tadqiqotchi G.Qarshiyeva «Hoji Muin Shukrullo dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari» nomli nomzodlik ishida jadid dramaturgiyasining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritarkan, buni shartli ravishda beshga bo'ladi: «Jadid dramaturgiyasining o'ziga xos beshinchi xususiyati dramalarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, xarakterlarning yaratilishida aks etadi»[2].

Behbudiyning «Padarkush»i boshlab bergan yo'lni qo'qonlik Hamza Hakimzoda Niyoziy o'ziga xos original ijodi bilan yuksak badiiy saviyada yanada kengayishiga hissa qo'shdi. Hamza – o'zbek dramaturgiyasining eng peshqadam, favqulodda iste'dodli namoyandasidir. Uning 1915-yilda yaratilgan «Ilm hidoyati» (bizgacha yetib kelmagan – *M.T.*), «Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari», «Boy ila xizmatchi», «Muxtoriyat yoki avtonomiya», «Tuhmatchilar jazosi», «Kim to'g'ri?», «Loshmon fojialari», «Farg'ona fojialari», «Burungi saylovlar», «Qozining sirlari», «El quzg'unlari», «Jahon sarmoyasining oxirgi kunlari», «Burungi qozilar yoxud Maysaraning ishi», «Paranji sirlaridan bir lavha yoxud Yallachilar ishi» deb nomlangan dramatik asarlari g'oyaviy-mundarijaviy jihatdan jadidchilik konsepsiyasiga uyg'un ekanligini ko'rish mumkin. Hatto, uning matni bizgacha yetib kelmagan «Qahramon O'g'iz», «Normuhammad domlaning kufr xatosi» kabi asarlarining sarlavhasidanoq taxmin qilish mumkinki, ushbu dramalar orqali muallif milliy qahramon siymosini: millatga suv va havodek zarur bo'lgan yangi davr, zehniyat, bilim, iqtidor hamda tadbir (yashash hadisi, usuli) egalari kerakligini («Qahramon O'g'iz»); yoki din-diyonat masalasida ham isloh qilinishi muhim bo'lgan milliy masalalar bisyor ekanligi («Normuhammad domlaning kufr xatosi») ifoda etilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

[1] Турсунов Т. XX аср ўзбек театри тарихи. – Тошкент: ART PRESS Co.Ltd, 2010. – Б. 52.

[2] Қаршиева Г. Ҳожи Муин Шукрулло драматургиясининг ғоявий-бадиий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 21.

«Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari» dramatik asari Hamzaning mazkur adabiy turga qo'l urgan dastlabki urinishlaridan biri hisoblanadi. Asarda o'zbeklarga xos yashash va ish ko'rish tarzi, jarayondagi ma'lum kamchiliklar yoritilgan. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek Hamza dramalariga baho berarkan: «Dramalaridan «Xolisxon» («Paranji sirlari» – *M.T.*), «Maysaraning ishi», «Zaharli hayot» – o'tmish hayotimizning o'zi»[1], – deya bejiz bitmagan. Ushbu pyesa tematik jihatdan ham, badiiy-g'oyaviy tomondan ham, biz, dissertatsion ishimizning ushbu faslida nomlari va asarlarini zikr etgan mualliflar asarlarida singdirilgan mazmun (yangilik, yangicha yashash, jididona dasturulamal) bilan hamohang. Hamza «Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari» fojiasida katta hayot ostonasida turgan yigit va qizlarning turmush qurish qarorini berishidan avval bir-birini ko'rib, tanib, sinab, amin bo'lib, ko'zi yetib so'ng oila qurishi lozim, ularning taqdirini ko'r-ko'rona hal qilishga intilish, muayyan moddiy yoki ijtimoiy rag'batlar evaziga insonni bebaxtlikka, hatto fojiaviy nihoyalanishi mumkin bo'lgan hayotda yashashga majbur etmaslik shartligini badiiy sathda ifoda etadi.

Asarda yaxshi niyat bilan, millat ravnaqiga hissa qo'shish orzusida turmush qurishga ahd qilgan ikki yosh – Mahmudjon va Maryamxonning fojiasiga sabab bo'lgan ijtimoiy illatlar: ota-onalarning farzandlar taqdiriga beparvoligi, qizning roziligisiz yoshi bir joyga borib qolgan cholga (Piri murshid eshon) turmushga berish, bunga chiday olmay qochib ketgan qizning alaloqibat o'z joniga qasd qilishi, xuddi shu manzara yigit taqdirida ham sodir bo'lishi ta'sirchan ko'rsatib berilgan.

Muallif asar nihoyasida (qabristonda) o'z qo'lida jon bergan Maryamxonning jonsiz tanasi uzra fig'on chekib, sevgilisi loshiga murojaat qilayotgan Mahmudjon tilidan quyidagi badiiy nutqni irod qiladi:

«Afv qil! Gunoh bir ota-onalarda ham emas. *(Jahl ila qo'l siltub.)* Haqiqatda bu ishlar jaholatdan! Jaholatdan! G'aflatdan! Ilmsizlikdan! *(Cho'chib, yana sarosima bo'lib, to'xtab turib, lahadga qarab.)* Jonim Maryam, mandanmi xafalanur ruhing?! Yo'q, ota-onalardanmi? Yo'q! *(Qichqirib.)* Jaholat bu! Jaholat! ... Tog'lardagi yirtqich hayvonlarda ham sizning kabi farzandga muhabbasizlik, shafqatsizlik, muruvvatsizlik, *(qichqirib)* zolimlik, xunxo'rlik o'lmas!!! Hech o'lmas! Volloh! O'lmas!»[2].

Hamzaning dramaturgik faoliyati uning yon-atrofidagi jadid yozuvchilariga ta'sir o'tkazmay qolmagan. Hamza ijodi quvvati o'zbek dramaturgiyasining yaqin istiqbolidagi repertuarlarining badiiy jihatdan kuchayishiga xizmat qilgan. O'zining dramanavislik iste'dodi bilan shunday badiiy yuksaklikni zabt etgan adib, qomusiy olim Fitrat dramalarida ham jadidchilik g'oyalarining asosiy mavzulari qalamga olingan.

Abdurauf Fitrat inqilob bo'lgan yildan e'tiboran dramatik asarlar yoza boshlagan. Uning «Begijon», «Abu Muslim», «Temur sag'anasi», «O'g'uzxon», «Mavludi sharaf», «Qon» (sanoqdagi ushbu asarlar matni bizgacha yetib kelmagan. – *M.T.*), «Chin sevish», «Hind ixtilolchilari», «Abulfayzxon», «Shaytonning tangriga isyoni», «Arslon» (sanoqdagi ushbu asarlar matni bizgacha yetib kelgan. – *M.T.*) kabi sahna uchun yozilgan asarlari o'tgan va hozirgi asr adabiyotshunoslari uchun tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. Ta'kidlash kerakki, Fitrat tarixiy mavzudagi dramatik asarlar yaratish an'anasini boshlab bergan muallifdir. E'tibor berilsa, u bu mavzuda pyesa yozishni birinchidan, davr taqozo etgan bo'lsa, ikkinchidan, muallifning o'z tabiati, ilmi, iste'dodi tarixiy mavzularga begona emas edi.

O'tgan asrning 20-yillari dramaturgiyasini tadqiq etgan adabiyotshunos Q.Jo'rayev o'zining doktorlik dissertatsiyasida keltirib o'tgan quyidagi fikrlari haqiqatga yaqin: «Bizga to'la yetib kelmagan bu asarda («Temur sag'anasi» (1918) dramasi nazarda tutilmoqda – *M.T.*) Fitrat Oktyabr inqilobining o'zbek xalqini yangi «Qizil kishanlar»ga bog'lagan davlat to'ntarishi bo'lganligini tushunib, sovetlarga qarshi kayfiyatni xalq ommasiga singdirishga, unda mustaqil davlatni barpo etish orzusini uyg'otishga intildi. Lekin yangi jamiyat Fitrat singari yozuvchilarning bunday asarlar yaratishiga qat'iy ravishda chek qo'ydi. Shunday keyin Fitrat «Chin sevish» (1921), «Hind ixtilolchilari» (1923) pyesalarini yozdi va ularda o'z qahramonlarini ingliz mustamlakasi bo'lgan Hindiston tuprog'iga ko'chirib, g'ayrimustamlakachilik *g'oyalarini olg'a surdi»*[3].

Fitrat o'zining poetik xulosalarini ifoda etishda o'zi yashab turgan davr qahramonlaridan ko'ra o'tmishda yashagan shaxslar taqdirini syujet chizig'iga keltiradi.

Fitrat dramalari poetikasini tadqiq etgan adabiyotshunos I.G'aniyev to'g'ri ta'kidlaganidek, «Islohotchilik, ma'rifatparvarlik, Turkiston birligi g'oyalari Fitrat uchun har doim asosiy g'oyaviy bazis bo'lib xizmat qilgan. Ana shunday g'oyalar Fitrat she'rlarining ham, publitsistikasining ham, dramaturgiyasining ham, hatto ilmiy faoliyatining ham markazida yonib turgan va ularni yadrosidan tortib to qobig'igacha va shu qobiqni yorib chiqib, o'quvchilar qalbigacha yor-

[1] Ойбек. Куйчи ва курашчи. Ҳамза замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 81.

[2] Ҳамза. Ҳ.Н. Тўла асарлар тўплами. 5 томлик. 3-том. Драмалар (1915-1920). – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 39-40.

[3] Жўраев Қ. 20-йиллар ўзбек драматургияси: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 1994. – Б. 46-47.

itib turgan chirog'dir»[1].

Fitrat dramalarida erk, milliy mustaqillik uchun kurash, ozodlik yo'liga to'g'anoq bo'lib turgan tashqi va ichki dushmanlarni daf etish masalasi, qolaversa, millatning birligiga raxna solib kelayotgan ulkan sabab va kamchiliklarni taftish etadi. Bunday taftish unsurlarini dramaturgning, ayniqsa, «Abulfayzxon» tragediyasi misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Yangi o'zbek sahnasidagi ilk musiqali drama – «Halima» asarini bitib, uni ommaga manzur qilib, xalq va teatr rishtalarini yanada mustahkamlashga erishgan shoir va dramaturg G'ulom Zafariy ham g'oyaviy jihatdan qaralganda, mohiyatan o'zigacha bo'lgan mualliflar yurgan yo'ldan boradi. Buning yaqqol isboti sifatida «Halima» musiqali dramasini keltirish mumkin.

Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon «Halima» asari haqida «Turkiston» gazetasining 1922-yil 16-dekabr sonida quyidagi fikrlarini bayon etadi: «11-dekabrda o'zimiz ko'rgan qishloq «Turon» binosida – yuzinchi martaba bo'lsa kerak – «Halima» *o'ynaldi ... Asarning* allanechanchi martaba qo'yilishiga qaramasdan, xalq to'ladir, joy tegishmaydir»[2]. Cho'lpon mulohazalaridan ayon bo'ladiki, asar keng ommaga manzur bo'lgan, tomoshabinni e'tiborini qozongan anshlag sifatida muvaffaqiyat qozongan.

Adabiyotshunos O.Usmonov «G'ulom Zafariyning ijodiy yo'li» nomli nomzodlik ishida: «Halima» dramasida ko'tarilgan g'oya aslida barcha jididlarning ma'naviy ustozi, bu harakatning yo'lboshchisi Ismoil G'asprali tomonidan o'rtaga tashlangan bo'lib, u maktab va maorif, matbuot va adabiy til masalalarini hal etish bilan birgalikda xotin-qizlarning shar'iy huquqlarini tiklashni ham o'z harakat dasturiga kiritgan»[3], – deb qayd etadi.

«Halima» musiqali drama haqida «Qizil O'zbekiston» gazetasining 1925-yil 20-mart sonida «To'lqin» imzosi ostida e'lon qilingan maqolada ifoda etilgan quyidagi fikrlar e'tiborga molik: «O'zbek oila turmushi juda ham yomon. Xotin-qizlarimiz bu kunga qadar o'yinchi-qo'g'irchoq qatorida sanalib keldilar va haliyam sanalib kelmoqdalar. Qiz berish, kuyov qilishda ham ixtiyor mutaassib ota-onalar qo'lida bo'ldi. Qiz ixtiyorsiz hayvon qatoridadir. ... Bu o'pera («Halima» nazarda tutilmoqda – *M.T.*) turmushimizning eng qayg'uli, fojiali joylaridan olib yozilg'on bir narsa bo'lishim bilan barobar yo'qolib ketmakda bo'lg'on ohanglarimizni bir yerga to'plag'on»[4].

Adabiyotshunoslikda «Halima» ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lgan sahna asarlari sirasiga kiradi.

Mazkur davrda yondosh adabiy tur va janrlarda ijod qilib shuhrat qozongan Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon dramaturgiya sohasida qalam tebratib, badiiy so'z orqali mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ochib berish, milliy muammolarni ko'rsatib berish hamda ularning yechimi o'laroq jadid g'oyalarini sizdirish kabi ijodiy niyatlarni ko'zda tutadi.

Umuman olganda, jadidlar boshlab bergan va taraqqiy ettirgan milliy dramaturgiya sohasi o'zining g'oyaviy-badiiy, umummilliy va umuminsoniy tamoyillari bilan o'zbek sahnasi uchun yaratilgan va istiqbolda ijod etilgan asarga dasturilamal vazifasini o'tab berdi.

Rezyume. Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy xususiyatlari tahlil etilgan ushbu maqolada Behbudiyning «Padarkush» fojiasidan G'ulom Zafariyning «Halima» musiqiy dramasiga qadar yaratilgan avangard sahna asarlari, ular atrofidagi fikr-mulohazalar tadriji asos qilib olindi. Maqolada mazkur asarlar g'oyaviy-badiiy jihatdan XX asr o'zbek milliy dramaturgiyasining taraqqiyotiga xizmat qilganligi ochib berilgan.

Resume. This article, which analyzes the ideological features of Jadid dramaturgy, examines the evolution of avant-garde stage works–from Behbudiy's tragedy «Padarkush» (The Patricide) to G'ulom Zafariy's musical drama «Halima» – and the critical discourse surrounding them. The article reveals how these works, from an ideological and artistic standpoint, contributed to the development of 20th-century Uzbek national dramaturgy.

Резюме. В данной статье, где анализируются идейные особенности джадидской драматургии, за основу взят путь развития авангардных сценических произведений — от трагедии Бехбуди «Падаркуш» («Отцеубийца») до музыкальной драмы Гуляма Зафари «Халима» — и размышления вокруг них. В статье раскрывается, как эти произведения в идейно-художественном плане послужили развитию узбекской национальной драматургии XX века.

[1] Ғаниев И. ***Фитрат драмалари поэтикаси***: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 30.
[2] Қаландар (Чўлпон). Саҳнамизда // Туркистон, 1922. 16 декабрь.
[3] Усмонов О. Ғулом Зафарийнинг ижодий йўли: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 61.
[4] Тўлқин. "Ҳалима" // Қизил Ўзбекистон, 1925. 20 март.